

Rahmonov Husanjon Abjalil o'g'lining "Omon Matjon she'riy matnlarining assotsiativ strukturasi" nomli 10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Dunyo tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab badiiy matnni antropotsentrik aspektida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilib, bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Keyingi yillarda badiiy matnni assotsiativ aspektida o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda badiiy matnning assotsiativ strukturasi tahlil qilindi, assotsiativ birliklarning matn yaratilishidagi roli ochib berildi, yozuvchi idioshtilini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Ammo tilshunosligimizda bu muammo ayrim tadqiqotlarda munosabat bildirib o'tilgan bo'lsa-da, maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy matnda assotsiativlik va uning o'rganilishi**" deb nomlangan. Ushbu bobda badiiy matnni assotsiativ aspektida tadqiq etishning nazariy asoslari, olamning badiiy manzarasi va unda assotsiativ birliklarning o'rni, assotsiativ birliklarning muallif lisoniy shaxsini namoyon qilishi kabi masalalar yoritilgan.

Bob 3 faslni o'z ichiga oladi. Ushbu bobning birinchi fasli "**Badiiy matnni assotsiativ aspektida tadqiq etishning nazariy asoslari**" deb nomlangan. Dunyo tilshunosligida badiiy matnni inson omili bilan bog'liq holda tadqiq etish masalasi dastlab psixolingvistik tadqiqotlarda o'rta tashlangan bo'lsa, keyinchalik bu muammo pragmatolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiyada katta

qiziqish bilan o'rganila boshlangani, ushbu ilmiy yo'nalishlarning har birida badiiy matn ularning yo'nalishi mohiyatidan kelib chiqqan holda tekshirilishi, ammo e'tirof etish joizki, uzoq yillar davomida badiiy matnda muallif shasiga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi masalasi deyarli tadqiq etilmaganligi, ijodkorning matn yaratishda tasvir obyekti haqidagi bilimlari, u haqidagi tasavvurlari, assotsiativ tafakkuri, xotirasining imkoniyatlari kabi masalalar tahliliga e'tibor qaratilgan. Bobning ikkinchi fasli **"Olamning badiiy manzarasi va unda assotsiativ birliklarning o'rni"** deb nomlangan. Keyingi yillarda falsafiy, lingvokognitiv, lingvomadaniy, psixolingvistik, etnomadaniy aspektlardagi tadqiqotlarda *olam manzarasi*, *olamning lisoniy manzarasi* terminlari faol qo'llanilayotganligi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bobning uchinchi fasli **"Assotsiativ birliklar muallif lisoniy shaxsini namoyon qiluvchi birliklar sifatida"** deb nomlangan. Har bir badiiy asarda yozuvchining lisoniy shaxsi u yoki bu darajada namoyon bo'lishi aytib o'tilgan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **"Omon Matjon she'rlarining assotsiativ xususiyatlari"** deb nomlangan. Ushbu bobda Omon Matjon she'rlarida assotsiativ aloqa ko'rinishlari, assotsiatsiyalarning hosil bo'lish omillari aniqlangan hamda shoir she'rlarida rang assotsiatsiyasining voqelanishi masalasi yoritilgan.

Tadqiqotning 3-bobida **"Omon Matjon she'rlari assotsiativ maydoni strukturasi"** deb nomlangan. Unda Assotsiativ maydon inson tasavvurlari va bilimi bilan bog'liq holda assotsiativ bog'langan birliklar majmuyini tashkil qilishi aytilgan. Turli sath birliklarini qamrab olishi izohlangan. Tilshunoslikda assotsiativ maydon quyidagi usullarda shakllantirilishi: 1) til egalari ustida assotsiativ tajriba o'tkazish asosida; 2) tayyor matnning assotsiativ maydonini belgilash asosida berib o'tilgan.

Tilshunoslikda badiiy matnning assotsiativ maydonini shakllantirishning bir qancha usullari ko'rsatilgan. Ushbu bobda til egalari ustida assotsiativ tajriba o'tkazish asosida assotsiativ maydon hosil qilinganligi mazkur dissertatsiyaning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Ishning ilmiy qimmatiga ta'sir etmagan holda, ayrim texnik kamchiliklar bor.

Rahmonov Husanjon Abjalil o'g'lining 10.00.01. – o'zbek tili ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun "Omon Matjon she'riy matnlarining assotsiativ strukturasi" mavzusida yozgan dissertatsiyasi shakl va mazmuniga ko'ra OAK talablariga mos, himoya uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrası
katta o'qituvchisi PhD K.A.Raxmatjonova

